

2020- yil yakuni



**TOSHKENT
SHAHRIDA
MAKTABGACHA
TA'LIM TIZIMI**



**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi**



Maktabgacha ta'lim tashkiloti belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'qitish, bolalarga qarab turish hamda ularni parvarish qilishni va unga ta'lim berishga ko'maklashishni amalga oshiradi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni – yil oxirida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar soni.




Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning joylar bilan ta'minlanganligi – mazkur ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotlari joylarining ulardagi bolalarga nisbatini ifodalaydi. Taqqoslama tahlil uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 100 joyga to'g'ri keladigan bolalar soni to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.



1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi – mazkur ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan 1-6 yoshdagi bolalar sonining mazkur yoshdagi (aholishunoslik statistikasining joriy hisob-kitoblari asosida yuritiladigan ma'lumotlar bo'yicha hisoblangan) umumta'lim muassasalarida o'qiydigan 6 yoshdagi o'quvchilarisiz bolalar soniga nisbatini ifodalaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni (yil oxiriga, birlikda)


Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining
yillar bo'yicha taqsimlanishi



2020- yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlari jami soni 653 tani tashkil etgan bo'lib, 2016- yilda bu ko'rsatkich 546 tani tashkil etgan. 2020- yil oxiriga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 1,2 % ni tashkil etdi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni
(yil oxiriga, kishi)



2020- yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni 116640 kishini tashkil etgan bo'lib, 2016- yilda bu ko'rsatkich 121690 kishini tashkil etgan. Pandemiya tufayli 2020-yil oxiriga nisbatan 4,3 % ga pasayish kuzatildi.



2020- yil yakuni



Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni (2020- yil oxiriga, kishi)

Toshkent sh.	9747	Shayxantohur	894
Uchtepa	1197	Olmazor	1033
Bektemir	228	Sergeli	868
Yunusobod	1290	Yakkasaroy	637
Mirzo-Ulug'bek	1286	Yashnabod	769
Mirobod	472	Chilonzor	1083

2020- yil oxiriga Toshkent shahrida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlarning jami soni 9747 kishini tashkil etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Yunusobod tumaniga to'g'ri keldi va uning soni 1290 kishini tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Bektemir tumaniga to'g'ri keldi, ya'ni 228 kishini tashkil etdi.

2020- yil yakuni



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari soni (2020- yil oxiriga, kishi)

2016- y.

8892

2017- y.

8145

2018- y.

9771

2019- y.

9831

2020- y.

9747

2020- yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari soni 9747 kishini tashkil etgan bo'lib, 2016- yilda bu ko'rsatkich 8892 kishini tashkil etgan. 2020- yil oxiriga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 9,6 % ni tashkil etdi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020- yil oxiriga, kishi)

Qiz bolalar

47,0 %




2020- yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlarni bolalarning jami soni 116640 nafar ulardan 54860 nafari (47,0 %) qizlar va 61780 ming nafari o'g'il bolalar (53 %) dan iborat bo'lgan.

O'g'il bolalar

53,0 %




Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni (2020- yil oxiriga, birlikda)



2020- yil oxiriga nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari jami soni 186 tani tashkil etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Yunusobod tumaniga to'g'ri keldi va uning soni 36 tani tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Yashnabod tumaniga to'g'ri keldi ya'ni 7 ta birlikni tashkil etdi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni
(2020- yil oxiriga, kishi)



2020- yil oxiriga Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar jami soni 7008 kishini tashkil etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri keldi va uning soni 1144 kishini tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Mirobod tumaniga to'g'ri keldi ya'ni 325 ta kishini tashkil etdi.



2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi bolalar soni
(2020- yil oxiriga, kishi)

		Bolalar soni	1- yoshgacha	2- yoshgacha	3- yoshgacha
	Toshkent shahri	116640	19	412	20789
	Uchtepa	13414	-	33	2461
	Bektemir	3103	-	-	461
	Yunusobod	15996	2	60	2787
	Mirzo Ulug'bek	14658	-	90	2603
	Mirobod	6401	-	11	983
	Shayxantohur	10379	10	35	1916
	Olmazor	12695	-	60	2460
	Sergeli	11151	-	22	1572
	Yakkasaroy	5406	7	42	961
	Yashnabod	11168	-	22	2404
	Chilonzor	12269	-	37	2181

davomi

		4- yosh	5- yosh	6- yosh	7- yosh va undan kattalar
	Toshkent shahri	31105	33710	29984	621
	Uchtepa	3671	3944	3271	34
	Bektemir	862	863	912	5
	Yunusobod	4253	4279	4473	142
	Mirzo Ulug'bek	3733	4432	3692	108
	Mirobod	1791	1916	1668	32
	Shayxantohur	2849	3015	2491	63
	Olmazor	3358	3599	3134	84
	Sergeli	3023	3519	3008	7
	Yakkasaroy	1421	1473	1459	43
	Yashnabod	2786	3176	2769	11
	Chilonzor	3358	3494	3107	92

2020- yil yakuni



2020- yil oxiriga Toshkent shahrida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning jami soni 116640 kishini tashkil etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Yunusobod tumaniga to'g'ri keldi va ularning soni 15996 kishini tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Bektemir tumaniga to'g'ri keldi ya'ni 3103 kishini tashkil etdi.



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (71) 203-88-27